

Iqtidor va innovatsiya ixtirolar doyasi

✘ Bugungi kunda yaratilayotgan ixtirolar namoyishi zamonamizning innovatsion holati va qudratini aks ettiradi va taraqqiyotning mezonini bo'lgan hamkorlikka keng yo'l ochadi. Har bir javhadagi innovatsion ishlanmalar va loyihalar yoshlarni yangiliklar sari undaydi. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, "Gidromelioratsiya" fakulteti, "Suv xo'jaligi va melioratsiya" ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich, 306-guruh talabalari guruh murabbiyi K.U.Musayev rahbarligida "InnoWeek.uz" mavzusidagi innovatsion haftalikda ishtirok etish uchun "O'zbekspomarkaz" milliy ko'rgazmalar majmuida bo'lib o'tayotgan ko'zgamada qatnashdi. Ular olgan taassurotlarini boshqa talabalar bilan ulashishdan mamnun bo'lishdi. Mana shunday innovatsion muhit talaba yoshlarni yangilik va yangi g'oyalar sari yetaklaydi.

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov